SIRDARYO VILOYATI BOYOVUT TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 14 - noyabr 343-9-123-Q/23 Boyovut tumani hokimligi

Boyovut tumani “Sarmich” mahallasida yashovchi voyaga yetmagan

2008-yil 18-dekabr kuni tug‘ilgan Xasanova Sohiba Sobirjon qizi hamda 2010-yil 18-yanvar kuni tug‘ilgan Xasanova Go‘zal Sobirjon qizlarini davlat tomonidan ijtimoiy muhofazaga olish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2002-yil 21-oktabrdagi “To‘liq davlat ta’minotidagi yetim bolalarni va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni pul nafaqalari hamda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar, shuningdek transportda yurish kartochkalari bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risida”gi 86, 119, 01/30-93, 301-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomiga hamda “Sarmich” mahallasida yashovchi fuqaro Turanov Daniyor Xasanboyevichning voyaga yetmagan jiyanlari Xasanova Sohiba Sobirjon qizi hamda Xasanova Go‘zal Sobirjon qizlariga chin yetim maqomi berish to‘g‘risida yozgan arizasiga asoslanib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asoslanib, qaror qilaman:

1. Boyovut tumani “Sarmich” mahallasi “Osiyo” ko‘chasi 58-uyda yashovchi fuqaro Turanov Daniyor Xasanboyevichning 2023-yil 7-noyabrdagi JYM-1130-sonli arizasi qanoatlantirilsin.

2. Boyovut tumani hokimligi bolalarni himoya qilish bo‘limiga taqdim etilgan hujjatlarga asosan 2008-yil 18-dekabr kuni tug‘ilgan Xasanova Sohiba Sobirjon qizi hamda 2010-yil 18-yanvar kuni tug‘ilgan Xasanova Go‘zal Sobirjon qizlariga ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lganligi sababli chin yetim maqomi berilsin.

3. 2008-yil 18-dekabr kuni tug‘ilgan Xasanova Sohiba Sobirjon qizi hamda

2010-yil 18-yanvar kuni tug‘ilgan Xasanova Go‘zal Sobirjon qizlari ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lganligi sababli moddiy yordam yoki pul nafaqalari olish huquqini saqlab qolish uchun O‘zbekiston Respublikasi hududidagi oliy, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim tarbiya olish jarayonida barcha imtiyozlar saqlab qolinsin.

4. Tuman bolalarni himoya qilish sho‘basi (Sh.Abduraimov)ga mazkur qaror chiqqandan so‘ng uch kun muddatda fuqaroga yuborish hamda belgilangan tartibda bolani yashash sharoitlarini o‘rganib borish vazifasi topshirilsin.

5.Voyaga yetmagan 2008-yil 18-dekabr kuni tug‘ilgan Xasanova Sohiba Sobirjon qizi hamda 2010-yil 18-yanvar kuni tug‘ilgan Xasanova Go‘zal Sobirjon qizlarining ota-onasiga tegishli uy-joy mavjud emasligi ko‘rsatib o‘tilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A. Alashukurov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.Uralova**